
Bahorga tayyorgarlik: yasharish faslini pokiza niyat va ozodalik bilan qarshilash yo'lida

Ayni kunlarda Rishton tumanining ko'plab maskanlarini obod va farovon etish yo'lidagi ishlar qizg'in davom etmoqda. Obodlik ostonadan boshlanadi, deganlaridek, ana shunday obodonlashtirish-ko'klamzorlashtirish tadbirlari tumanga qo'shni tumanlardan kirib keluvchi hududlarida ham amalga oshirilmoqda.

Xususan, Navbahor, Yoyilma va Bog'iston kabi mahallalar hududidan o'tgan, adirliklarda joylashgan va qo'shni O'zbekiston va Beshariq tumanlariga olib boruvchi katta yo'l yoqalarini obod etish tadbirlari ham avj pallada. Mirishkor bog'bonu, bobo dehqonlar esa dalada bahorgi mavsum tadorigini boshlab yuborishgan.

Yangi o'zlashtirilgan maydonlarni tartibga keltirish, bog'u-rog'lardagi manzarali va mevali daraxtlarga shakl berish, yerni o'g'itlash, ariq va zovurlarni mavsumga tayyorlash, muxtasar aytganda ko'klamni munosib qarshi olishga jadal kirishilgan.

2024-03-04 13:29:52